



Improving the pedagogical conditions of students during the internationalization of higher education institutions

Shokhista DONIYOROVA¹

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2023

Received in revised form

10 August 2023

Accepted 25 September 2023

Available online

15 November 2023

Keywords:

internationalization,
international educational
programs,
university students,
academic mobility.

ABSTRACT

This article examines the educational services offered by higher education institutions to improve the pedagogical conditions of students in the process of internationalization. The problems of the process of internationalization of educational programs in modern higher education are discussed.

2181-3701/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss5-pp38-40>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oliy ta'lim muassasalari xalqarolashuvida talabalarning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

xalqarolashuv,
xalqaro ta'lim dasturlari,
oliy ta'lim muassasalari
talabalari,
akademik harakatchanlik.

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari xalqarolashuv jarayonida talabalarning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish uchun taklif qilinayotgan ta'lim xizmatlari haqida fikr yuritilgan. Bugungi kun oliy ta'limda ta'lim dasturlarini xalqarolashuvi jarayonida turgan muammolar haqida so'z yuritilgan.

Улучшение педагогических условий студентов при интернационализации высших учебных заведений

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интернационализация,
международные

В данной статье рассматриваются образовательные услуги, предлагаемые высшими учебными заведениями для улучшения педагогических условий студентов

¹ Teacher, Uzbek-Finnish Pedagogical Institute.

образовательные
программы,
студенты вузов,
академическая
мобильность.

в процессе интернационализации. Обсуждаются проблемы
процесса интернационализации образовательных
программ в современном высшем образовании.

KIRISH

O'zbekistonning so'ngi o'n yillik mobaynida iqtisodiyot, jamiyat globallasuvi va mintaqaviylashuvining kuchayishi oliy ta'limda xalqarolashtirishga yanada strategik yondashish uchun sharoit yaratdi. Mamlakatimiz bu borada "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da, O'zbekiston oliy ta'lim tizimini markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish uchun zarur chora tadbirlar ishlab belgilab berildi. Bu borada oliy ta'lim muassasalari xalqarolashuvida talabalarining pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim jihatlardan biridir.

ASOSIY QISM

Xalqarolashuv oliy ta'limda, rivojlangan va rivojlanayotgan jamiyatlarda asosiy o'zgarishlar jarayoniga aylandi. Har bir davlatning Oliy ta'lim muassasalari ta'lim tizimining belgilangan maydonlarida turlicha farq qiladi. Xalqarolashuv, bu sohada global jamiyatning bitta jihatidir va oliy ta'limning yuksak darajada takomillashtirilishini talab qiladi. Shu sababli, talabalarining pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishda quyidagi tahlillar ketma ketligini bayon qilishimiz zarurdir:

- oliy ta'lim muassasalari o'zining maqsad va vazifalari boyicha tuzilgan, talabalar va o'qituvchilar uchun o'quv jarayonini o'rganish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqarolashishga yo'naltirilgan bo'lishi;

- xalqarolashuv talabalar uchun xalqaro aloqalar va xalqaro maydonda ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini ochishi uchun o'z navbatida o'quv jarayonining sifatini oshirish;

- xalqaro talabalarining pedagogik shart-sharoitlarini yaratishda har bir talabaning individual o'quv jarayonini yaratish va ularning qo'llab quvvatlash;

- talabalarining ilmiy jihatlarida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda mustahkamlashlari, ilm-fan sferalariga taalluqli fikr olishlari uchun qulay muhit yaratilishi;

- talabalar o'z fikrlarini izhor qilish va ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun mustaqil fikrlashni rivojlantirish;

- xalqaro konferensiyalar, forumlar va tanlovlar orqali talabalarining xalqarolashuvda ishtirok etishining muhimligini tushuntirish;

- xalqaro ta'lim dasturlari tashkil etish, dunyo bo'ylab ta'lim olishning yangi yo'nalishlarini ochish uchun muhimdir.

NATIJALAR VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xalqarolashuv jarayonida barcha pedagogik shart-sharoitlarning bir-birini to'ldirishi va o'zaro bog'liqligi mavjud bo'lib, ular ikki toifaga bo'linadi. Birinchi toifaga ko'ra, pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash xalqaro ta'lim hamjamiyatini shakllantirish jarayonida sodir bo'ladi, uning asosiy maqsadi xalqaro fan va ta'lim sohasi sub'yektlarining ta'lim dasturlari mazmunini ta'minlashga tayyorligini shakllantirishdir. Ushbu jarayon doirasida talabalar uchun akademik mobillik dasturlari amalga oshirilmoqda, buning natijasi ishtirokchilarda

global kompetensiya ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning innovatsion ta'lim texnologiyalarini egallashi hamda o'quv-metodik qo'llab-quvvatlash materiallarini ishlab chiqishdir.

Ikkinchi toifaga ko'ra, pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash ta'lim faoliyati jarayonida amalga oshiriladi, uning doirasida xalqaro ilmiy va ta'lim sohasi sub'yektlarining birgalikdagi faoliyati jarayonida ta'lim dasturi amalga oshiriladi. Ushbu o'zaro bog'liq jarayonlarni amalga oshirish natijasida ta'lim dasturlarini xalqarolashuvi to'liq tarzda sodir bo'ladi.

Shunday qilib, xalqarolashuvning asosiy pedagogik sharti sub'yektlarning ushbu jarayonga tayyorligi quyidagilarda ko'rinadi:

- ta'lim natijasi sifatida global kompetensiyaning shakllantirish;
- ta'limda innovatsion yondashuvlardan foydalanish;
- akademik harakatchanlikni tashkil etish pedagogik shart-sharoitlari asosiy pedagogik shartga o'zaro bog'liqdir.

Ta'lim dasturlarini xalqarolashuvi bo'yicha xalqaro ta'lim sohasi sub'yektlarining o'zaro hamkorligini tashkil etish usuli oliy ta'lim muassasalarida xalqarolashuvga ta'sir qiluvchi ta'lim hamjamiyatlarini shakllantirishni ta'minlaydigan ta'lim dizayni ekanligini aniqladik va asoslab berdik. Oliy ta'lim muassasalari, xalqaro ta'lim dasturlarini mustahkamlash orqali talabalarni dunyo bo'ylab integratsiya qilish, shaxsiy rivojlanishlarini ta'minlash va ijtimoiy ma'naviyatni shakllantirishlari uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu bo'yicha davlatlar, xalqaro tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari birgalikda ishlashlari bu esa oliy ta'lim muassasalarida xalqarolashuvda talabalarining pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish uchun juda muhimdir.

XULOSA

Oliy ta'lim muassasalari xalqarolashuvda talabalarining pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarini dunyo reytingida munosib o'rinni egallashi uchun, xalqaro ta'lim xizmatlarini taklif etishi, xalqaro talabalarga pedagogik shart-sharoitlarni yaratib borishi, mamlakatimizdagi ajdodlarimizdan qolgan boy ilmiy merosni va bugungi kunda yaratilayotgan imkoniyatlarni xalqaro maydonga olib chiqishi uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Altbach, P. G. (2002). Knowledge and education as international commodities. International Higher education, 28,2-5.
2. Xalqaro Ta'lim va Ma'naviyatni Mustahkamlash: Texnologik Muassasalar va Kolinli Pedagogika. (J.W. Meyer, 2000).
3. Oliy Ta'lim Muassasalari O'quvchilarining Xalqarolashuvi: Nazariy va Amaliy Maslahatlar. (P. W. Cookson, 2018).
4. Astin, Alexander W. and Helen S. Astin (1999). Meaning and Spirituality in the Lives of College Faculty: A Study of Values, Authenticity, and Stress. Los Angeles: Higher Education Research Institute.
5. Dalton, Jon C. (2001). Career and Calling: Finding a Place for the Spirit in Work and the Community in The Implications of Student Spirituality for Student Affairs Practice, 17-26.